



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 17-iyul

343-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2024-yil 13-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2024-yil hosildan bug‘doy xarid qilish va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyundagi 325-son qarori ijrosi haqida”gi 298-6-0-Q/24 –sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyundagi 325-son hamda Namangan viloyat hokimining 2024 yil 13 iyuldagi 298-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2024-yil 13-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2024-yil hosildan bug‘doy xarid qilish va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyundagi 325-son qarori ijrosi haqida”gi 298-6-0-Q/24 –sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyundagi 325-sonli qarori bilan:

a) O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining 2024-yil hosildan sug‘oriladigan maydonlarning har gektaridan o‘rtacha 2,5 tonnadan, jami 2 mln. 550 ming tonna (sh.j. Namangan viloyatida 181 ming 100 tonna) bug‘doyni,

jumladan:

1 mln. 513 ming tonnasini (sh.j. Namangan viloyatida 110 ming 200 tonna) fermer xo‘jaliklari hamda boshqa bug‘doy yetishtiruvchilar (keyingi o‘rinlarda - bug‘doy yetishtiruvchilar) tomonidan keyinchalik birja savdolarida sotish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlash jamg‘armasining (keyingi o‘rinlarda-Jamg‘arma) tijorat vakilida vaqtinchalik saqlashga qabul qilish;

837 ming tonnasini (sh.j. Namangan viloyatida 59 ming 900 tonna) tovar bug‘doy davlat resursi sifatida;

200 ming tonnasini (sh.j. Namangan viloyatida 11 ming tonna) urug‘lik uchun Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan xarid qilish to‘g‘risidagi takliflari ma‘qullanganligi;

Davlat resursi sifatida xarid qilinadigan bug‘doy uchun to‘lovlar 2024-yilning mart-may oylarida O‘zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasida (keyingi o‘rinlarda - Birja) 3-sinf bug‘doy uchun shakllangan o‘rtacha narxdan (o‘rtacha kotirovkadan) kelib chiqqan holda, bug‘doy topshirilgan kundan e‘tiboran ikki hafta muddatda bug‘doy yetishtiruvchilarning maxsus hisob-varaqalariga to‘liq o‘tkazilishi;

Birja uch kun muddatda o‘zining rasmiy veb-sahifasiga 2024-yilning mart-may oylarida birja savdolarida 3-sinf bug‘doy uchun shakllangan o‘rtacha narx to‘g‘risida ma‘lumotlarni tumanlar kesimida joylashtirishi;

Vaqtincha saqlash uchun qabul qilinadigan tovar bug‘doyni saqlash xarajatlari Jamg‘armaning tijorat vakili va bug‘doy yetishtiruvchilar o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq 2025-yil 1-yanvarga qadar

Jamg'arma mablag'lari hamda ushbu bug'doyni tashib keltirish uchun transport, qabul qilish va xaridorlarga yuklab jo'natish xarajatlari bug'doy yetishtiruvchilar hisobidan amalga oshirilishi belgilanganligi;

Urug'lik bug'doy tayyorlash korxonalarini tomonidan urug'lik bug'doyning har bir tonnasi 2024-yilning mart-may oylarida Birjada 3-sinf bug'doy uchun shakllangan o'rtacha narxda (o'rtacha kotirovka) Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-oktyabrda "Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligiga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 641-son qarorida boshqoli don urug'larining avlodlari uchun belgilangan ustamalarni hisobga olingan holda xarid qilinishi, bunda:

Jamg'arma urug'lik bug'doyni xarid qilish, tayyorlash va sug'urta xarajatlarini kreditlash uchun 12 oy muddatga (shundan 6 oy imtiyozli davr bilan), O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy stavkasining 50 foizi miqdorida (shundan, bank marjasi 4 foiz) kredit resurslarini urug'lik bug'doy tayyorlash korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklariga joylashtirishi;

tijorat banklari ushbu kredit resurslari hisobidan urug'lik bug'doy tayyorlash korxonalariga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy stavkasining 50 foizi miqdorida 12 oy muddatga (shundan 6 oy imtiyozli davr bilan) kredit ajratishi belgilanganligi;

Vaqtincha saqlashga qabul qilinadigan bug'doy birja savdolariga oyma-oy grafik asosida qo'yilishini inobatga olib, 2024-yil hosili uchun bug'doy yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirishga ajratilgan kreditlarni qaytarish muddati, istisno tariqasida, 2025-yil 1-yanvarga qadar uzaytirilganligi;

Bunda, Jamg'arma tomonidan 2024-yil hosili uchun bug'doy yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida tijorat banklariga joylashtirilgan kredit resurslarini qaytarish muddati mutanosib ravishda uzaytirilishi;

Davlat zaxirasidagi bug'doy O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo'mitasi hamda Jamg'armaning yozma ko'rsatmasiga asosan ikki yilda bir marta Jamg'armaning tijorat vakili tomonidan xarid qilinadigan yangi hosilni jamlash va avval zaxirada saqlangan bug'doyni birja savdolariga chiqarish orqali yangilanishi;

Bunda, bug'doyni yangilash jarayonida ajratib olinadigan donli aralashma (oraliq mahsulot) birja savdolari orqali sotilishi hamda yuzaga kelgan salbiy farq va qo'shimcha xarajatlar Jamg'arma mablag'lari hisobidan qoplanishi belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Namangan viloyatida 2024-yil hosilidan vaqtinchalik saqlash, davlat resursi va urug'lik uchun bug'doyni qabul qilish omborlari dislokatsiyasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyundagi 325-sonli qarori bilan:

a) 2024-yil g'alla hosilidan boshlab bug'doyni saqlash quvvatiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar Jamg'arma nomidan bug'doy yetishtiruvchilardan tovar bug'doyni xarid qilish, qabul qilish va saqlash, shuningdek, xaridorlarga yuklab jo'natish ishlarini amalga oshirish bo'yicha tijorat vakili (keyingi o'rinlarda Jamg'armaning tijorat vakili) hisoblanishi, bunda Jamg'armaning tijorat vakili:

tovar bug'doyni xarid qilish va sotish bo'yicha bug'doy yetishtiruvchilar hamda Jamg'arma bilan belgilangan shakldagi elektron hisobvaraqa-fakturani rasmiylashtirishi va hisobini alohida yuritishi;

bug'doyni qabul qilish va ombordan chiqarish jarayonida "d-xarid.uz" axborot tizimiga kiritiladigan moliyaviy hisob-kitoblar va ma'lumotlarning haqqoniylikiga shaxsan javobgar hisoblanishi;

b) 2024-yil g'alla hosilidan boshlab: davlat resursi sifatida tovar bug'doyni xarid qilish jarayonida qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmasligi va sotishda soliq solish bazasiga kiritilmasligi; ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan tijorat banklari tomonidan Jamg'armaning tijorat vakili hisobvarag'idagi debit aylanmasidan davlat resursi sifatida tovar bug'doyni xarid qilish jarayonida bank xizmatlari undirilmasligi;

davlat resursi sifatida hamda vaqtincha saqlashga qabul qilinadigan bug'doyning sifati, saqlanishi hamda xaridorlarga yuklab jo'natilishida tovar bug'doyning sifati bo'yicha nazorat Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda – "O'zagroinspeksiya") tomonidan amalga oshirilishi;

Jamg'armaning tijorat vakili "O'zagroinspeksiya" nazorati ostida davlat resursi sifatida saqlanayotgan tovar bug'doy hajmlarini ikki yilda bir marotaba to'liq xatlovdan o'tkazishi, avvalgi yillarda o'tkazilgan va xatlov davrida qoldiqda turgan tovar bug'doy partiyalarining tabiiy kamayishiga yo'l qo'ymaslik;

v) Jamg'arma mablag'lari hisobidan davlat resursi sifatida 2022-2023-yillar va 2024-yilda xarid qilingan, shuningdek, vaqtincha saqlashga qabul qilingan 5 va undan yuqori sinflardagi tovar bug'doy barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarga birja savdolari orqali cheklovlarsiz sotilishi; donni qayta ishlash quvvatiga ega bo'lgan bug'doy yetishtiruvchilar o'zlari yetishtirgan, shuningdek, Jamg'armaning tijorat vakili sifatida o'z omborlariga vaqtincha saqlash uchun qabul qilgan tovar bug'doydan 75 foizidan kam bo'lmagan miqdorda un ishlab chiqarish va birja savdolari orqali sotish majburiyatini olganda, tovar bug'doyni grafik asosida qayta ishlab sotishga ruxsat berilishi;

g) Vaqtincha saqlashga qabul qilinadigan bug'doyning birja savdolarida sotishdan tushgan mablag'lar, birinchi navbatda, Jamg'arma mablag'lari hisobidan bug'doy yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirishga ajratilgan kredit hamda urug'lik bug'doydan yuzaga kelgan qarzdorlikni so'ndirishga yo'naltirilishi;

d) Jamg'arma tomonidan tijorat vakiliga o'tkazib beriladigan va qaytariladigan mablag'lar hamda vaqtincha saqlash uchun bug'doy topshirgan bug'doy yetishtiruvchilarning mahsulot sotishdan tushgan mablag'lari harakati qonunchilik hujjatlariga muvofiq undiruvga qaratilmaydigan maxsus maqsadli hisobvaraqaqlarida amalga oshirilishi belgilab qo'yilganligi inobatga olinsin.

5. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari A.Xakimovga O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda bir hafta muddatda davlat resursi sifatida xarid qilinadigan va vaqtincha saqlash uchun qabul qilinadigan hamda urug'lik bug'doy hajmlarini bug'doy yetishtiruvchilar kesimida tasdiqlash yuzasidan qaror loyihasini kiritsish topshirilganligi;

Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (Sh.Aliyev)ga tumanlar hokimliklari tomonidan yo'llarda g'alla o'rish va don tashish texnikalarining harakatlanish xavfsizligini ta'minlash, g'alla maydonlarida yong'in kelib chiqishining oldini olish, shuningdek, yetishtirilgan hosilni talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan zarur choralarni ko'rish topshirilganligi;

Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari A.Xakimov, viloyat ichki ishlar boshqarmasi, viloyat iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Z.Baxriddinov), "Agroinspeksiya" viloyat boshqarmasi (N.Karimov), viloyat tovar xomashyo birjasi (K.Axmedov), viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi (A.Abdusalomov), "Namangandonmahsulotlari" AJ (A.Maxmudov), "Uchqo'rg'onmahsulotlari" AJ (A.Jo'rayev), "Popdonmahsulotlari" AJ (U.Umarjanov) hamda tumanlar hokimlari mazkur qarorda belgilangan topshiriqlarning ijrosini ta'minlanishi uchun mas'ul ekanliklari belgilab qo'yilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

6. Tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari (B.Muydinov), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jo'rabayev), "Agroinspeksiya" tuman bo'limi (M.Usmanov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyundagi 325-sonli qarori asosida ish tashkil qilsinlar.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari hamda tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari B.Muydinov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



N.Xudoyberdiyev